
A large, semi-circular graphic containing a photograph of a laptop. The laptop screen displays a data dashboard with various charts and tables. The dashboard includes a sidebar with a user profile and a main area with several data points and a line graph. The text '2021- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi' is overlaid on the image in white text.

**2021- yil yanvar-dekabr
oylarida Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu - korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **21 544,5 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **5 106,2 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,0 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

21 544,5 mlrd.
so'm

120,0 %

5 106,2 mlrd.
so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **517,2** mlrd. so'mga o'sdi va **2 085,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **420,4** mlrd. so'mga o'sgan va **1 633,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning noyabr oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **237,7** mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning noyabr oyiga nisbatan 2020- yil dekabr oyida xizmatlar hajmi **85,3** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	21 544,5	120,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	652,9	131,1
Moliyaviy xizmatlar	2 677,8	115,7
Transport xizmatlari	5 327,7	120,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 981,1	118,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	747,0	109,6
Savdo xizmatlari	7 027,2	111,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	722,9	134,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	527,1	123,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	422,6	147,8
Ijara xizmatlari	633,5	120,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	446,8	120,4
Shaxsiy xizmatlar	610,7	125,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	908,9	153,3
Boshqa xizmatlar	839,4	151,5

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **32,6 %**ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,7 %**), moliyaviy xizmatlar (**12,4 %**), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**4,2 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,0** %ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **34,1** %ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan - **1,5** %.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**53,3** %), boshqa xizmatlarda (**51,5** %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**47,8** %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**34,0** %), aloqa va axborotlashtirishda (**31,1** %), shaxsiy xizmatlarda (**25,5** %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**23,0** %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklolarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarida (**9,6** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, %da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan - **143,1 %**.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan - **28,4 %**.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,6** %ni tashkil etib, bu esa **7 027,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **5 607,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **34,1** %iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

5 607,2

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

7 027,2

99,4

O'sish sur'ati, %da

111,9

2020- y. yanvar-dekabr



2021- y. yanvar-dekabr

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **69,6 %**ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,2 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 677,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **2 290,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **12,4** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **13,9** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **387,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **15,7** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **131,5** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,0 %**ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **5,2 %**ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,8 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,6 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar - **7,6 %**.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,8 %**ga to'g'ri kelgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **652,9** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **131,1** %ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **493,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **3,0** %iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **143,1** %ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **84,7 %**ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da

2020- y.
yanvar-dekabr



2021- y.
yanvar-dekabr



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **86,6 %**ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish - uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlil ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **527,1 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,5 %**ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan o'sish sur'ati **123,0 %**ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi - qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **158,2** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-dekabr



2021- y. yanvar-dekabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,9** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,4** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-dekabr



2020- y.
Yanvar-dekabr



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent viloyati *)	21 544,5	120,0	102,0
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	798,9	115,4	105,3
Olmaliq	1 441,8	115,2	101,6
Angren	1 392,0	120,3	103,0
Bekobod	1 017,1	119,8	104,1
Ohangaron	443,2	124,8	102,0
Chirchiq	1 849,8	122,9	102,9
Yangiyo'l	951,6	117,7	104,4
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	552,0	114,8	101,9
Ohangaron	354,5	121,3	103,0
Bekobod	624,1	118,1	102,8
Bo'stonliq	1 355,6	127,4	104,7
Bo'ka	560,0	114,0	102,3
Quyi Chirchiq	431,7	123,5	104,0

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Zangiota	2 030,2	124,2	108,7
Yuqori Chirchiq	839,4	120,9	104,5
Qibray	2 158,3	115,2	101,3
Parkent	863,4	124,5	104,3
Piskent	314,8	115,0	102,4
O'rta Chirchiq	793,3	122,7	101,4
Chinoz	617,3	120,7	101,1
Yangiyo'l	977,2	114,8	101,3
Toshkent	1 178,3	123,8	102,7


2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi - **10,0 %** (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida - **10,4 %**). Aksincha, eng past ko'rsatkich Piskent tumanida - **1,5 %** (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida - **1,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

7 386,3
ming so'm

Hajmning
o'sishi

1 814,0
ming so'mga

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 386,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **121,3** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **5 572,3** ming so'mga to'g'ri kelgan.

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,7** %ni tashkil etgan.



121,3 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

31 562 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

3 215 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

111,0 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


62,7 %

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,7 %**, sanoat **18,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,2 %**ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,7 %**ga to'g'ri keldi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,6 %**ni, sanoat **19,0 %**ni, qurilish **7,7 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,7 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (46,0 %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,9 %ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 %ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,0 %ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,7 %ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **70,6 %**ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **58,1 %**ga to'g'ri keldi.

